



TURLI TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISH VAQTI VA MEHNAT UNUMDORLIGIGA TIKUVCHI PSIXOLOGIK HOLATINING TA'SIRINI TADQIQ ETISH

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna

Namangan to'qimachilik sanoati institut professori

nabidjanovanargiza@gmail.com

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg'ona politexnika instituti, "YST" kaf. assistenti

+998913295891 saida.mamatqulova.1989@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-dekabr 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-dekabr 2024-yil

Jurnal soni: 13

Maqola raqami: 44

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1054>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Jixoz, tikuv, loyiha turlari, materialni o'rganish, vertikal va gorizontal chiziqlar, rivojlanish davri, kostyum, o'lcham, mexanizatsiyalash, jarayon, mashina, uskuna, me'yor, asiy vaqt, yordamchi vaqt, kutish vaqti, tashkiliy vaqt, nosozlik vaqti, tikuv-trikotaj mahsulotlari.

ANNOTATSIYA

Korxonalarda ish jarayonlari, mehnat obyektlarining shakli yoki holatini o'zgartirishga qaratilgan operatsiyalar ish jarayonlarini mexanizatsiyalash uchun texnologik jihozlardan foydalaniladi ularga xodimning psixologik ta'siri hamda maxsulotning sifatiga ta'siri. Hozirgi vaqtda kiyim-kechak ishlab chiqarish korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha.

Kirish. Hozirgi kunga mamlakatimizda mahsulotni tikish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida Farg'ona vodiysida faoliyat yuritayotgan tikuv-trikotaj korxonalaridan hisoblangan "ARGOLID", "BAHT TEXTILE ANDIJON" va "Bobur Fayz" MChJlarda faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlardan psixologik test so'rovnomasi o'tkazildi. So'rovnomada 350 nafar tikuvchi ayol va qizlar ishtirok etdilar. Quyida so'rovnoma natijalari batafsil bayon etiladi. Psixologik test so'rovnomasini olish bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar korxonadagi ish faoliyati yakunida yani tikish jarayoniga xalal bermagan xolda olib borildi [1].


Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada keltirilgan adabiyotlar kiyim-kechak dizayni, tikuvchilik texnologiyalari hamda energiya samaradorligi bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Nizamova va Mamatqulova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot zamonaviy ayollar plashlarining tahliliga qaratilgan bo'lib, modellastirish va materiallar tanlovi borasida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Tadjikuziev va boshqalar (2024) energiya tejamkor payvandlash texnologiyalarini o'rganib, innovatsion modellar va kombinatsiyalash usullarini tavsiya etgan. Ushbu yo'nalish kiyim ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamatkulova va boshqalar (2024) kiyim-kechak ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallarning tadqiqiga e'tibor qaratgan bo'lib, mato sifati va tikuv mahsulotlarining texnologik jarayonlariga oid ilmiy natijalarni taqdim etadi. Dizayn masalalariga oid Mamatkulova va hamkorlari (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqot libos dizaynining ahamiyati va uni ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Mamatkulova va boshqalar (2024) san'at dekoratsiya usullaridan foydalanib, kashtado'zlik naqshlarini

yaratishning ahamiyatini o'rganib, ularni kiyim dizaynida qo'llash bo'yicha tavsiyalar bergan. Ushbu adabiyotlar kiyim-kechak sanoati va dizayni sohasida innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot kiyim-kechak dizayni va ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar va materiallar tahliliga qaratilgan. Tadqiqot davomida ilmiy-analitik yondashuv qo'llanilib, ilg'or adabiyotlar hamda mavjud ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqot usuli yordamida turli materiallarning sifati, chidamliligi va dizayn xususiyatlari baholandi. Bundan tashqari, empirik usul asosida kiyim ishlab chiqarish jarayonlari o'rganilib, innovatsion usullar va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar yig'ishda an'anaviy va zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarining taqqoslama tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, kashtado'zlik va libos dizaynining zamonaviy tendensiyalari o'rganilib, amaliy tadqiqotlar orqali ularning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari ilmiy-nazariy va amaliy asosda umumlashtirilib, sohaning rivojlanishiga oid takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Anketa so'rovnomasida 51% shaharda, 49% tumanlarda istiqomat qiladigan ayol-qizlar ishtirok etishdi. Ularning 68%ni 18 dan 35 yoshgacha: 26%ni 36 dan 45 yoshgacha va 6%ni 46-55 yoshgacha tikuvchi ishchi xodimlar tashkil etdi.



Kun mobaynida ishchining kayfiyatiga oilaviy muammolarni ta'sir etishi – 48%, qisman ta'sir etishi – 32% va ta'sir ko'rsatmaslik ko'rsatkichi esa – 20%ni tashkil etdi (2-grafik). Oilaviy muammolar ishchining ruhiy holatiga to'liq yoki qisman ta'sir etsa, bu ish unumdorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.



1- grafik. Agar ishxonangizda sizga tegishli muammo yoki biror ziddiyatlar kelib chiqsa sizning kayfiyatingizga salbiy ta'sir etadimi?

Korxonadagi tikuvchiga tegishli bo'lgan muammo va ziddiyatlarni ishchining psixologiyasiga ta'siri o'rganilganda 140 nafar (40%) ishchi "ta'sir etadi", 80 nafar (23%) ishchi "ta'sir etmaydi" va 130 nafar (37%)

ishchi "qisman ta'siri bor" deb javob berishgan (1-grafik). Ta'sir etuvchi muammolar va ziddiyatlar ishchilarning kayfiyatiga, motivatsiyasiga va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.




- ish boshqaruvchining (doimiy ravishda) oldingizda turishi yoki noo'rin tanbehlar berishi
- kunlik ishning to'g'ri taqsimlanmasligi
- tikuv mashinasining nosozligi tufayli

2-grafik. Mahsulotni tikish jarayonida asabiylashishning asosiy sabablari nimalardan iborat bo'ladi?

Mahsulotni tikish jarayonida ishchini asabiylashishiga sabab bo'luvchi omillar: ishboshqaruvchini ishchiga noo'rin tanbeh berishi – 25%, kunlik ishning to'g'ri taqsimlanmasligi – 42% va tikuv mashinasining nosozligi – 33%ni tashkil etdi (2-grafik). Kunlik ishning to'g'ri taqsimlanmasligi eng katta ta'sirga ega bo'lib, bu ish yukining

teng taqsimlanmaganligi ishchilar o'rtasida asabiylik va norozilikni kuchaytirishini anglatadi. Tikuv mashinasining nosozligi va ishboshqaruvchining noo'rin tanbehilari ham asabiylikka sabab bo'lmoqda, bu esa ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.





- tikuv mashinasida ip uzilishi yoki mokidan keladigan ip bilan chatishib ketishi
- mahsulotni tikish sifati buziladi

3-grafik. Agar kayfiyatingiz yaxshi bo'lmasa mahsulotni tikish jarayonida qanday muammolar yuzaga keladi?

Ishchining kayfiyatiga bog'liq holda mahsulotni tikish jarayonida yuzaga keladigan muammolar o'rganilganida 25% ishchi kunlik ishlab chiqarish mahsulot me'yorini bajarilmasligini, 27% ishchi tikuv mashinasida tez-tez ip uzilishi yoki iplearning chatishib ketish xolatlari yuzaga kelishini, 48% ishchi esa mahsulotni tikish sifati buzilish xolatlari yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidladilar (3-grafik). Ushbu natijalar

ishchining kayfiyati mahsulot sifatiga va ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Kayfiyatning yomonligi kunlik ishlab chiqarish rejasini bajarmaslikka, tikuv jarayonida texnik nosozliklarning ko'payishiga, va eng muhimi, mahsulot sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.




- tikuv mashinasini bajarilayotgan ish va mahsulot turiga moslash

4-grafik. Mehnat unumdorligini oshirish uchun nima qilsa yaxshi samara beradi deb o'ylaysiz?

Mehnat unumdorligini oshirish yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra tikilmagan mahsulot (yarim fabrikat)ni ishchiga vaqtida yetkazib berish kerakligi (41%), aksariyat tikuvchilar yoshlardan iborat bo'lganligi bois ishchilar kayfiyatini ko'tarish uchun ish jarayonida musiqa qo'yish kerakligi (32%), katta yoshli ayollar esa asosan tikuv mashinasini bajarilayotgan ish va mahsulot turiga moslashtirish (27%) taklifini berishdi (4-grafik). Ushbu takliflar ishchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan. Yarim fabrikatni o'z vaqtida yetkazib berish uzluksizlikni ta'minlasa, musiqa va moslashtirilgan texnikalar ishlovchilarning ruhiy holatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ish jarayonida (vazifasidan tashqari) yarim fabrikatlarni vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli ishchini bekorchi bo'lib qolishiga (41%), tikuv mashinasini sozlashga (34%), yarim fabrikatni ishchi o'zi ish joyiga tashib olib kelishiga (25%) ko'p vaqt sarf bo'lishi aniqlandi. Ushbu natijalar ishlab chiqarish jarayonida tashkilotdagi nosozliklar va resurslarning oqilona taqsimlanmaganligini ko'rsatadi. Yarim fabrikatlarni o'z vaqtida yetkazib berish, texnik xizmat ko'rsatishni samarali tashkil qilish va ish joylarini to'g'ri jihozlash orqali bu muammolarni bartaraf etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.



5- grafik. Ish o'rnining va o'tish yo'lakchalarining torligi asab tizimingizga salbiy ta'sir etadimi?



Ish o'ri va yo'lakchalarni tor va noqulayligi ishchining asab tizimiga ta'sir etishi – 58%ni, ta'sir etmasligi esa 15%ni tashkil etdi (5-grafik). Bu muammo ishchilarni charchatib, ularning kayfiyatini tushirishi, natijada ishlab chiqarish samaradorligiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Tikuv mashinasi ipining tez-tez uzilishi natijasida ignaga ip o'tkazish jarayonini ishchining asab tizimiga ta'sir etishi – 37%ni, ta'sir etmasligi esa – 32%ni tashkil etdi. Bu muammo ishlab chiqarish jarayonini uzib qo'yib, ishchilarning diqqatini chalg'itadi va ruhiy bosimni oshiradi.

Korxonada faoliyat yuritayotgan tikuvchi uchun shovqinsiz ishlash (42%) va tikuv mashinasining doimiy sozligi (31%) eng muhim omillardan ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, tikuvchilar uchun ish joyidagi qulay sharoitlar, jumladan shovqinsiz muhit va ishlatiladigan texnika va uskunalarining sozligi katta ahamiyatga ega. Bu omillar ishchilar kayfiyatini yaxshilab, ularning mehnat samaradorligini oshirishga yordam beradi [2].

Ushbu tahlillardan quyidagi umumiy xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchiidan, ishchi sharoitlarining ishchilarning ruhiy holatiga ta'siri. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ish joyidagi sharoitlar, jumladan tor yo'lakchalar, shovqin, tikuv mashinasining nosozligi kabi omillar ishchilarning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday noqulay sharoitlar ishchilarni asabiylashtirib, ularning kayfiyatini tushiradi va bu holat ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, ergonomik jihatdan qulay ish joylari va texnik uskunalarini soz holatda saqlash ishchilar ruhiy holatini yaxshilashga va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, oilaviy muammolar va ish kayfiyatiga ta'siri. Ishchilarning kayfiyatiga oilaviy muammolar ta'sir qilishi mumkinligi aniqlandi. Bu muammolar ishchilar ruhiy holatini yomonlashtirib, mehnat unumdorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, rahbarlar ishchilar kayfiyatini hisobga olgan holda motivatsiyani oshirish usullarini qo'llashlari muhimdir.

Uchinchiidan, texnik nosozliklarning ta'siri. Tahlillar ko'rsatdiki, tikuv mashinasining nosozligi, ipning tez-tez uzilishi kabi texnik muammolar ishchilarning asabiylashishiga va ularning kayfiyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Texnik nosozliklar ishchi vaqtini isrof qilib, ishlab chiqarish jarayonining uzilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, mashinalar va uskunalarini doimiy ravishda texnik xizmat ko'rsatish orqali soz holatda saqlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchiidan, ish yukining teng taqsimlanishi. Kunlik ishning to'g'ri taqsimlanmasligi ishchilarda asabiylilik va norozilikni kuchaytiradi. Ishchilarning uzluksiz va samarali faoliyatini ta'minlash uchun ish yukini teng taqsimlash va rejalashtirish muhimdir. Bu nafaqat asabiylilikni kamaytiradi, balki umumiy ishlab chiqarish samaradorligini ham oshiradi.

Beshinchiidan, psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiya. Aksariyat ishchilar yosh bo'lganligi sababli, ularning kayfiyatini ko'tarish va ish joyidagi muhitni yaxshilash uchun qo'shimcha choralar qo'llash, masalan, ish jarayonida musiqqa qo'yish kabi usullar taklif qilindi. Bu usul ishchilarning ruhiy holatini yaxshilash va motivatsiyani oshirish uchun samarali bo'lishi mumkin.

Oltinchiidan, ishlab chiqarish resurslarini tejimli foydalanish. Yarim fabrikatlarni o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli ishchilar ko'p vaqtini bekor o'tkazib, ba'zida ularni o'zlari tashib kelishlariga majbur bo'lishgan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Yarim fabrikatlarni o'z vaqtida yetkazib berish orqali ishchilarning vaqtini tejimkor ishlatish va ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz amalga oshirish mumkin.

Yettinchiidan, mehnat unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan takliflar. Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida tikuvchilar tomonidan bir necha takliflar berildi, masalan, yarim fabrikatlarni vaqtida yetkazib berish, shovqinsiz muhit yaratish va texnika mosligini ta'minlash. Bu takliflar ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali tashkil etish va ishchilar mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Muhokama. Ish joyidagi texnik, tashkiliy va ruhiy omillar ishchilarning asabiy holatiga va ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi. Ishchilar uchun ergonomik jihatdan qulay sharoitlar yaratish, texnik nosozliklarni bartaraf etish, ish yukini teng taqsimlash, shovqinsiz va qulay muhitni ta'minlash va ishchilarning ruhiy holatini yaxshilash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridir. Rahbarlar ushbu omillarni hisobga olib, ishchilarning kayfiyatini va ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan choralar ko'rishlari samaradorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ergonomik sharoitlarni yaxshilash. Tikuvchilar uchun ish joylari va yo'lakchalarni kengroq va qulay qilish, shuningdek, ish joylarining ergonomik talablarga muvofiq bo'lishini ta'minlash muhimdir. Bu ishchilarning charchoqligini kamaytirib, ularning kayfiyatini va ish unumdorligini yaxshilaydi. Ish joylarida shovqinni kamaytirish uchun ovoz yutuvchi materiallar qo'llash va texnologik jarayonlarni takomillashtirish kerak. Bu ishchilarning ruhiy bosimini kamaytirib, diqqatni jamlash va samaradorlikni oshirishga yordam beradi [3,4,5].

Texnik nosozliklarni oldini olish. Tikuv mashinalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish va ularga profilaktika o'tkazish zarur. Mashinalarning nosozligi va ipning tez-tez uzilishi kabi texnik muammolarni minimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash mumkin. Mashinalarni doimiy soz holatda saqlash uchun xizmat ko'rsatish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim. Bu ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirishga va umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi [6].

Ish yukini teng taqsimlash. Har bir ishchi uchun ish yukini teng taqsimlash orqali asabiylilik va norozilikni kamaytirish zarur. Ish jarayonlarini yaxshilash maqsadida ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishda yuqori malakali menejrlarni jalb qilish tavsiya etiladi. Ishchilarning kunlik va oylik rejalarini asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish, har bir operatsiyaning me'yorlari aniq belgilangan holda, samaradorlikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Resurslarni tejimkor boshqarish. Yarim fabrikatlarni ishchilarga o'z vaqtida yetkazib berish orqali ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta'minlash zarur. Bu ishchilarning bekor turmasligiga va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Katta yoshli ishchilar uchun mashinalarni ishlov berilayotgan mahsulot turiga moslashtirish tavsiya etiladi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [7,8,9].

Ishchilarni rag'batlantirish. Ishchilar ish unumdorligi va mehnat sarfiga muvofiq adolati haq olishlari kerak. Bu ular uchun qo'shimcha motivatsiya yaratadi va samaradorlikni oshiradi. Ishchi xodimlarni ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli amalga oshirganliklari yoki sifati mahsulot tikish uchun mukofotlash tizimini joriy qilish motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Texnologik jarayonlarni takomillashtirish. Ish jarayonlarini standartlashtirish va mashinalarni avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini oshirish zarur. Bu resurslarni tejimkor ishlatishga va texnik nosozliklarning oldini olishga yordam beradi. Texnologik taraqqiyot sur'atlarini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish va eskirgan texnika va uskunalarini yangilash lozim. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Tikuv-trikotaj korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ishchilarning mehnat unumdorligini

yaxshilash uchun ish sharoitlarini ergonomik jihatdan yaxshilashlari, texnik xizmat ko'rsatish sifatini oshirishlari, ish yukini teng taqsimlash va motivatsiya choralari amalga oshirishlari zarur. Buning natijasida

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[2]. Tadjikuziev R., Rubidinov S., Mamatqulova S. Advancements in energy-efficient welding production techniques: Innovative models and methods for combined workpiece fabrication //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 583. – C. 05005.

[3]. Saida Mamatkulova, Shakhlo Tursumatova, Makhmudjon Turdiyev, Manzura Abdurakhimova, Makhmudjon Abdullayev, Rano Berdiyeva Research of materials for clothing in the production of various sewing products //E3S Web of Conferences. - EDP Sciences 538, 04003 (2024)

[4]. Saida Mamatkulova, Gulhayo Mirbobayeva1, Mavjudaxon Ulug'boboyeva, Nosirjon Yakubov, Bamo Nizamova, Xilola Tursunova. Importance of design in dresses // E3S Web of Conferences 538, 04001 (2024)

[5]. Saida Mamatkulova, Rano Berdiyeva, Irodakhon Obidova, Maftuna Khoshimova, Malohat Rakhmonova, Bekzod Mominov. The significance of creating embroidery patterns from art decoration

korxonalar o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishlari, ishchilar esa o'z mehnatini yanada samarali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

techniques in the field of sewing – knitting //E3S Web of Conferences 538, 04002 (2024).

[6]. Nurulla Ismailov1,Y , Nargiza Nabidjanova2 , Dilrabo Rayimberdiyeva2 , Rashida Ergasheva2 , and Saida Mamatkulova. Economic efficiency of production of knitted fabrics per unit of time //E3S Web of Conferences 538, 04013 (2024)

[7]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(05), 1–10.

[8]. Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women's clothes sewing- a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research. 2(03).16-21.

[9]. Raxmatovna.M.S.(2022). Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5, May, 2022.7